

MADANIYAT MARKAZLARINING PROFESSIONAL JAMOALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH MASALALARI

1. Sh.K.O`rinov,

2. Sh.Ne`matullayeva

1. BuxDU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası o`qituvchisi

2. BuxDU San`atshunoslik fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7619780>

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional jamoalar faoliyatini tashkil etish, ularning istiqbollari, hamda madaniyat markazlarining jamoalar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: ijodiy jamoa, professional jamoa, raqs, havaskorlik jamoalari, madaniy tadbirlar. Mamlakatimizda professional ijodiy jamoalar faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularning muntazam ravishda respublikamizning olis hududlarida gastrol safarlarga jalb etilishi ularning o`z ustida ishlashiga zamin yaratmoqda. O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi O`zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi ijodiy jamoalar bunga yaqqol misol bo`ladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan O`zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to`g`risidagi 2018 yil 27 avgustdagi Qarori bilan mamlakatda an`anaviy va akademik musiqa hamda raqs san`atini rivojlantirish, ijrochilarning kasb mahoratini oshirish va iqtidorli yoshlarni aniqlash uchun shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilgan, musiqa ijrochilari va raqs jamoalari ijodini har tomonlama qo`llab-quvvatlash hamda rag`batlantirish ta`minlanmoqda. Shu o`rinda filarmoniyaning asosiy vazifalariga to`xtaladigan bo`lsak, qaror bilan:

- milliy, mumtoz va zamonaviy musiqa hamda raqs san`atini ilg`or yutuqlar asosida rivojlantirish;
- aholining musiqa va raqs san`atiga bo`lgan ma`naviy ehtiyojini lektoriy, konsert ishlari hamda musiqiy-ma`rifiy ishlar orqali shakllantirish va qondirish;
- musiqa va raqs san`ati sohasidagi ijodkorlarning samarali ish yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- musiqa va raqs san`atidagi yutuqlarni O`zbekistonda va xorijda targ`ib qilish;
- Davlat filarmoniyasi repertuarini milliy va xorijiy mumtozning eng sara namunalari bilan to`ldirish;
- musiqiy-ma`rifiy ishlar orqali barkamol shaxsni shakllantirish, aholini estetik va axloqiy tarbiyalash, iste`dodli yoshlarni qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish;
- barcha turdagi va janrdagi musiqa hamda raqs san`atini faol targ`ib qilish, ularni radio va televideniye, boshqa ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet tarmog`ida ommalashtirish;
- aholini madaniy hayotga jalb etish maqsadida ularning barcha qatlamlari uchun konsert tadbirlariga borish imkoniyatlarini ta`minlash;
- musiqa va raqs jamoalari hamda ijrochilarining badiiy darajasi va kasb mahoratini takomillashtirish belgilab berilgan.

Har bir hududda Filarmoniyaning bo`linmalari tashkil etilib, ular tasarrufida professional jamoalar faoliyat olib bormoqda.

Mazkur professional jamoalar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda havaskorlik jamoalar bilan hamkorligi tashkil etishda respublikamizda faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarining o'rnini ahamiyatlidir. Har bir jamoaning hamkorlik faoliyati ikki yani ham professional ham havaskorlik jamoalarning kelajakdagi ijodiy jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Savol tug'ilishi o'rinli, professional jamoalari bilan hamkorlik faoliyati madaniyat markazi uchun qanday naf keltiradi, Birinchidan, Professional ijodiy jamoa o'zining repertuaridagi musiqiy nomerlarni olis hududlarda namoyish etsa, havaskorlik jamoalari uchun master klass vazifasini o'taydi;

madaniyat markazi o'zining hamkorlik faoliyatini tashkil etganda, markaz xizmat ko'rsatadigan hudud aholisi uchun bo'sh vaqti mazmunli tashkil etiladi hamda bugungi kunda aholi fikr mulohazalarini o'rgangan holda aytish mumkinki, madaniyat markazi faoliyati qoniqarli baholanadi;

madaniyat markazi tashabbusi bilan mazkur jamoalarning konsert dasturlarini tashkil etilganda madaniyat markazining yillik yuklamasida mavjud pul tushumi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

tashkil etilgan madaniy tadbir yoki konsertlardan so'ng aholi tomonidan farzandini madaniyat va san'atga yo'nalitirishi, madaniyat markazlarida pullik to'garaklarning soni ortishiga zamin yaratadi.

Amaliyotdagi jarayonlardan biriga misol qilib keltirish mumkinki, Buxoro Filarmoniyasi tasarrufidagi "Buxoro go'zallari" raqs ansambli xodimlari Buxoro shahar madaniyat markazlari qoshida tashkil etilgan havaskorlik jamolari keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Madaniy tadbirlarda ularning birgalikdagi chiqishlari hamda havaskorlik to'garaklarida raqs san'atini o'ziga mukammal singdirgan ishtirokchilar mazkur truppa a'ziligiga olinib, viloyat darajasidagi tadbirlar ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aytib o'tish joizki, ijodiy jamoalar o'z navbatida ikkiga:

1. Professional ijodiy jamoalar – asosan, Filarmoniya hamda uning hududiy bo'linmalari qoshida tashkil etiladi. Mazkur jamoalarda faoliyat olib borayotgan xodimlarning har biri uchun shtatlar jadvali asosida oylik ish haqi to'lanadi.
2. Havaskorlik jamoalar – asosan madaniyat markazlari qoshida tashkil etilib, mazkur jamoalar faqat xalq unvoniga ega bo'lgan taqdirdagina hududiy moliya organlari tomonidan jamoaning faoliyatiga qarab shtat ajratadi.

Havaskorlik va uning bir ko'rinishi bo'lgan folklor etnografik jamoalari hozirgi kunda dunyoning ko'pgina xalqlari madaniyati uchun xos bo'lgan fenomenal hodisa hisoblanadi. Bu hodisani o'rgangan ko'pgina tadqiqotchilar folklor va havaskorlik jamoalarini bir narsa, ya'ni jamoalar faoliyati folklorning bir ko'rinish, tarkibiy qismi sifatida baholaydilar. Istiqloq tufayli havaskorlik jamoalarni faoliyati endi madaniyat markazlarida davom etadi. Bu esa bu havaskorlik jamoalarni davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlaridan foydalanishni osonlashtiradi.

Havaskorlik jamoalarining asosiy vazifasi qadimdan ana'anaviy tarzda bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, urf odatlar, marosimlar, milliy kuylar va qo'shiqlar, milliy merosimizni o'rganib, hozirgi fuqarolar va yoshlarga yetkazib berishdan iborat. XX asrning 20 yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamarahonimlarning bevosita

tashabbusi hamda boshchiligida o'zbek etnografik ansambli mashhur "ko'k ko'ylak" ansambli tulidi. Bu ijodiy ansambl an'anaviy folklori sahnaga ko'chirgan ilk havaskorlik jamoa hisoblanadi. XX asrning 50 yillarida Urgut tumanida tuzilgan "Beshqarsak" havaskorlik jamoasi o'zining ishtirokchilari tarkibi va repertuarining turfa xilligi haqiqiy havaskorlik jamoasini yuzaga keltirgan edi. XX asrgacha yaratilgan o'zbek marosim folklori janrlari o'zining qadimiy an'analari poetik tabiati bilan ajralib turar edi. Biroq sobiq ittifoq tuzumidagi sinfiylik mafkurasi va uning qatag'onlari natijasida xalqimizning milliy qadriyatlarini, oilaviy marosimlar, shu jumladan, so'z san'ati bilan bog'liq badik, kinna, olqish, taqvimiy marosimlar bilan bog'liq "Navro'z", "Qizil gul sayli", "Boychechak sayli", "Guli surh", "Yo ramozon", "Barot keldi", "Shohmo'lar", "Sust xotin", "Choy momo" kabi marosimlarning aytimlari, qo'shiqlarining matnlari xalq xotirasidan ko'tarilishi uchun astoydil harakat qildi.

Havaskorlik jamoasi qatnashchilari va ijrochilari xalqning professional badiiy ijodi bo'lib, ommaning uyushgan holda san'atda yaqinlashuvi, murojaati va munosabatini ifodalovchi shakl hisoblanadi. Bu shakl, o'z mohiyati jihatidan aholining mazmunini hordiq chiqarishda qo'llash mumkin bo'lgan ijtimoiy foydali tashabbusidir. Folklor san'ati kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirib, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalash ishiga hizmat qiladi. O'zining eng yaxshi namunalari bilan jamiyatning badiiy hazinasini boyitishiga hissa qo'shadi.

Xullas, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan havaskorlik jamoalarining paydo bo'lishi, ularning folklor san'ati asarlari, milliy qo'shiqlar, marosimlarini qayta tiklanishiga, ularning ijrosi va namoyishi natijasida aholi, aynicha, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi hissalarini muhim hisoblanadi. Shu bois, bu jamoalarning keyingi faoliyati madaniyat markazlarida davom ettirilishini davlat dasturi orqali belgilab qo'yildi.

Ommaviy tadbirlarning ko'pchilik qismi hozirda turli xil usullarda, texnika vositalari yordamida ijro etish shakllari ham ommaviylashib bormoqda. Havaskor jamolarning ommaviy tomoshalardagi ko'rinishlari tadbir qatnashchilarini g'oyaviy-ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Badiiy ijroni shakllantirishda ham havaskorlik jamoalarning o'rni katta hisoblanadi. Badiiy ijro inson tafakkurining rivojiga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Urinov S. K., Rakhmatova M. The role of culture and art of uzbekistan on a global scale //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
2. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA "AVESTO" NING O'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.
3. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
4. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.
5. KOrinov S., Jahongirova N. O'ZBEKISTONDA TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING RIVOJLANISHI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 161-162.

6. KOrinov S., Raupova M. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MUZEYLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – С. 116-118.
7. KOrinov S. et al. NOANANAVIY MAYDON TOMOSHA DRAMATURGIYASIDA INVERSIYA USLUBI, KOMPOZITSION BIRLIK ASOSI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – С. 113-115.
8. O'rinov S. K., Nurilloeva G. A. TASVIRIY SAN'AT MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 152-156.
9. Davlatova, M. H. (2019). Variability of Aspectual Meanings in English. *European Journal of Research and Reflection in Educational Science*, 7(12.2019), 778-780.
10. Davlatova, M. H. (2020). An Integrative history of Aspectual meanings. *JournalNX*, 6(04), 17-22.
11. Davlatova, M. H. (2020). Aspectual variability of information culture in the history of the English language. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 24-28.
12. Davlatova, M. H. (2020). Lexico-semantic Structure and Its Analysis on the Example of Verbs. *JournalNX*, 6(06), 189-192.
13. Davlatova, M. H. Relation of lexical-semantic structure of verbs in the linguistic essence. *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*, 6(5).
14. Hasanovna, D. M. (2021). SEMANTIC IMPLEMENTATION OF RESULTATIVE STRUCTURES. *METHODS*, 7(6).
15. Давлатова, М. Х. (2015). The role of songs in learning English. *Молодой ученый*, (10), 1145-1147.
16. Hasanovna, D. M. (2021). DIFFERENT ASPECTS OF RESULTATIVE STRUCTURES ACCORDING TO THEIR LINGUISTIC ESSENCE. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 475-479.
17. Давлатова, М. Х. (2017). Этапы работы с видеотекстами на занятиях Английского языка. *Интернаука*, (9-2), 16-19.
18. Давлатова, М. Х. (2015). The role of songs in learning English. *Молодой ученый*, (10), 1145-1147.
19. Khajieva, F. (2020). Genesis and development of stylistic devices classifications. *Philology Matters*, 2020(3), 30-38.
20. Khajieva, F. M. (2019). Kendjayeva Gulrukh Fatillovovna STUDY OF STYLISTIC LEXICOLOGY (2019). *TEST Engineering and Management, USA*, 4162-4169.
21. Khajieva, F. (2016). The diversity of Viewpoints in Jay Parini's novel. In *The Last Station* // "World Science" International Scientific and Practical Conference. *UAE Ajman* (p. 57).
22. Melsovna, K. F. (2021). Cosmopolitanism through intertextual devices in the postmodern biographical novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 156-161.
23. Хажиева, Ф. М. (2019). The manifestation and the function of epistolary technique in the biographical novel "The Last Station" by Jay Parini. *Проблемы и достижения современной науки*, (1), 71-73.
24. Хажиева, Ф. М. (2022). Поэтика ва риторика бинар оппозицияда. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 193-196.
25. Khajieva, F. (2021). CONCEPTUAL FRAMEWORK OF ALLUSIONS IN THE NOVEL "THE MOOR'S ACCOUNT" BY LAYLA LALAMI. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.

26. Хажиева, Ф. М. (2021). ЖЕЙ ПАРИНИ ИЖОДИДА БИОГРАФИК РОМАН КОНЦЕПЦИЯСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-2).
27. Khajieva, F. M., & Fatilloevna, K. G. (2019). Study of Stylistic Lexicology.
28. Khajieva, F. M. (2018). EPISTOLARY TECHNIQUE IN THE BIOGRAPHICAL NOVEL «AVICENNA» BY MAQSUD QORIYEV. *ББК 1 P76*, 27.